



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY SO'NISHNING IJTIMOIIY -PSIXOLOGIK OMILLARI

Mashrabov Xolbek Kenja o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Kuyish shaxs faoliyatining barcha darajalarida, ya'ni individual-psixologik, ijtimoiy-psixologik va tashkiliy tizimlarda namoyon bo'ladigan murakkab disfunktsional holat sifatida talqin etiladi. Kasbiy so'nish shaxsning kasbiy samaradorligi, ishga bo'lgan motivatsiyasi, qoniqish darajasi va emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddatli stress ta'siri ostida harbiy xizmatchilarda charchoq, diqqatning susayishi, motivatsiyaning pasayishi, muloqotdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy chetlashish va o'z kasbiy roldan begonalashuv kuzatiladi. Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarda emotsional (kasbiy) kuyish sindromining psixologik tabiati, shakllanish omillari va oqibatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kasbiy so'nish, stress, absenteizm, emotsional kuyish, shaxsiy tarkib, harbiy xizmatchi, depressiya, xizmat faoliyati.

Kuyish bu shaxs faoliyatining barcha darajalarida individual-psixologik, ijtimoiy-psixologik va tashkiliy tizimlarda namoyon bo'ladigan kompleks disfunktsional holatdir. U kasbiy faoliyat samaradorligi, ishga bo'lgan motivatsiya va kasbiy qoniqish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kuyish holati shaxsning kasbiy faoliyatdan tashqari "noprofessional" hayot sohalariga ham differensial tarzda ta'sir etib, hayot sifati ko'rsatkichlarining pasayishiga, ijtimoiy munosabatlar buzilishiga va emotsional barqarorlikning sustlashishiga olib keladi. Psixologik nuqtai nazardan, kuyish bu shaxsning uzluksiz stress, haddan tashqari emotsional yuklama va resurslar tanqisligi sharoitida kasbiy moslashuv mexanizmlarining izdan chiqishi natijasida yuzaga keladigan psixoemotsional disfunktsiyadir. U motivatsion sohaning pasayishi, shaxsiy yutuqlarni qadrsizlantirish, begonalashuv hissi va ijtimoiy empatiya darajasining kamayishi orqali namoyon bo'ladi [1, 121-b.].

Harbiy xizmatchilar jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasbiy guruh hisoblanadi. Ularning faoliyati boshqa kasb turlaridan bir qator jihatlari bilan farq qiladi: u stressli va ekstremal sharoitlarda kechadi, xizmat jarayonida shaxs psixikasiga noqulay omillar ta'sir etadi hamda ular jamiyat va davlat oldida yuksak mas'uliyatni o'z zimmasiga oladilar. Kasbiy faoliyatning o'ziga xosligi va ushbu kasbiy guruhning ijtimoiy vazifasidan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarda, erkaklarda ham, ayollarda ham emotsional kuyish (burnout) holatlari yetarlicha keng tarqalgan. Ushbu sindrom shaxs psixikasiga travmatik ta'sir ko'rsatadi, harbiy xizmatchining asosiy ehtiyojlari va psixologik imkoniyatlarini buzadi, psixosomatik kasalliklar va sog'liqning yomonlashuviga olib keladi, xizmat samaradorligi va xavfsizligini pasaytiradi, natijada belgilangan vazifalarni bajarish sifatiga zarar yetkazadi. Ayrim hollarda, bunday holat jamiyat uchun real xavf tug'diradi, chunki harbiy xizmatchilar qurol va texnika bilan bevosita aloqada bo'ladilar [2, 3, 4].



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Harbiy kasbiy faoliyat kontekstida emotsional kuyish fenomeni asosan psixologik yondashuv doirasida o'rganilgan bo'lib, u harbiy xizmatdagi stress omillari, moslashuv qobiliyati, shaxsning individual xususiyatlari, ruhiy-asabiy barqarorligi, hayotdan qoniqish darajasi, kasbiy deformatsiya va deviant xulq-atvor ko'rinishlari bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Bu yo'nalishda E.A.Zimnitskaya, E.V.Zmanovskaya, I.A.Machulskaya, N.V.Maysak, A.M.Salogub, N.N.Vorobyova, D.M. Xasenova, E.V.Chuprikova, Yu.V.Ovchinnikov, M.A.Zelenova, A.V.Sechko kabi olimlar ilmiy hissa qo'shganlar. Psixoanalitik yondashuv nuqtai nazaridan esa kuyish muammosi ko'p qirrali hisoblanadi. Emotsional kuyish holati ongli intilishlar bilan ongsiz ehtiyojlar o'rtasidagi ichki ziddiyat, kasbiy faoliyatda himoya mexanizmlarining paydo bo'lishi, "Men" (Ego) identifikatsiyasi buzilishi, reallikka moslashishdagi qiyinchiliklar, ob'ektga nisbatan munosabat va bog'lanishlarning izdan chiqishi bilan bog'liq deb izohlanadi. Bundan tashqari, u normativ inqirozlarni boshdan kechirish, kamsinuv yoki ustunlik kompleksi, narsissistik shaxs buzilishlari bilan ham chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin [5].

Kasbiy kuyish sindromi bu murakkab, ko'p qirrali psixologik konstrukt bo'lib, u uzoq muddatli va intensiv shaxslararo muloqotlar natijasida yuzaga keladigan salbiy psixologik kechinmalar majmuasidan iborat. Bunday muloqotlar, odatda, emotsional jihatdan to'yingan yoki kognitiv jihatdan murakkab bo'ladi. Shu sababli, kuyish sindromi bu uzoq davom etuvchi shaxslararo stresslarga psixologik javob reaksiyasi hisoblanadi. Mazkur sindrom eng ko'p "inson – inson" tizimiga mansub kasb egalari orasida, ya'ni inson bilan bevosita muloqot va hamkorlikni talab etuvchi kasbiy faoliyat turlarida yaqqol namoyon bo'ladi [6].

Kasbiy kuyish bu surunkali stress zaminida shakllanadigan sindrom bo'lib, u ishlovchi shaxsning emotsional-energetik va shaxsiy resurslarining kamayishiga olib keladi. Kuyish jarayoni nafaqat insonning individual faoliyatiga, balki butun tashkilot faoliyatining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bu holat harbiy xizmatchilar faoliyatida og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin, chunki u institutsional barqarorlik va insonning psixologik salomatligiga xavf tug'diradi, ayrim hollarda esa shaxsning kasbiy va ijtimoiy hayotini izdan chiqaradi [7].

Harbiy xizmat murakkab kasbni tanlagan har bir inson hayotidagi o'ziga xos va mas'uliyatli davrdir. Armiya tizimidagi harbiy tuzilma o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, uning asosida davlat harbiy xizmati tushunchasi yotadi. Bu xizmat davlat xizmatining o'ziga xos shakli bo'lib, fuqarolik xizmatidan farqli jihatlari bilan ajralib turadi. Masalan, oddiy davlat xizmatchisidan farqli ravishda harbiy xizmatchi, bir tomondan, qurol ishlatish huquqiga ega, boshqa tomondan esa zarurat tug'ilganda, qo'mondon buyruqiga binoan o'z harbiy burchini oxirigacha ado etish majburiyatiga ega. Boshqacha aytganda, u o'z Vatani, xalqini va davlat suverenitetini himoya qilish yo'lida inson uchun eng qimmat narsa o'z hayotini fido etishga tayyor bo'ladi [8].

Shunday ekan, real xizmat sharoitida harbiy xizmatchilar muntazam ravishda ularning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'sirida bo'ladilar. Bular Vatanga sadoqat burchidan tashqari, rahbariyat yoki safdoshlar tomonidan bo'ladigan psixologik bosim,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

shuningdek xizmat mehnatining tashkiliy xususiyatlari bilan bog'liq. Shu kabi omillar ta'sirida emotsional kuyish sindromi asta-sekin shakllanadi: avvaliga charchoq paydo bo'ladi, u esa vaqt o'tishi bilan kasbiy tushkunlik va faoliyatga bo'lgan qiziqishning yo'qolishiga olib keladi. Zamonaviy tadqiqotchilar bu jarayonni aniqlash imkonini beruvchi 100 dan ortiq simptomlarni ajratib ko'rsatganlar. Eng ko'p uchraydigan va og'ir simptomlar quyidagilardir: kasbiy motivatsiyaning pasayishi, ishga nisbatan qoniqmaslikning kuchayishi, diqqatning susayishi, xatoliklar sonining ortishi, ishdagi beparvolik, xavfsizlik talablari va protseduralarni e'tiborsiz qoldirish, ish standartlarining buzilishi, muddatlarni bajarmaslik, bahona izlash, ish joyidagi nizolar, surunkali charchoq, asabiylik, xavotir, hamkasblar va fuqarolardan uzoqlashish, ishga chiqmaslik holatlarining ortishi (absenteizm) va hokazo.

Boshqa manbalarda emotsional kuyish simptomlari fiziologik va psixologik ko'rinishlarga ajratiladi. Fiziologik belgilarga quyidagilar kiradi: doimiy charchoq, kuchsizlanish, atrof-muhit o'zgarishlariga sezuvchanlik, astenik holat, bosh og'riqlari, oshqozon-ichak tizimi buzilishlari, tana vaznining ortishi yoki kamayishi, nafas qisishi, uyqusizlik. Psixologik belgilarga esa quyidagilar kiradi: ish tobora og'ir va murakkab tuyulishi, ishni bajarish qobiliyatining pasayishi, ishga haddan tashqari berilish (uyda ham ish haqida o'ylash), noaniq xavotir hissi, zerikish, entuziazmdan ayrilish, ranjish va umidsizlik hissi, aybdorlik hissi, o'zini keraksiz his etish, tez g'azablanish, asabiylik, shubhalanish, haddan tashqari mas'uliyat hissi, qaror qabul qila olmaslik, qat'iylik va qotib qolgan fikrlash (rigidlik), boshqalar uchun o'zini haddan tashqari mas'ul deb bilish, vaziyatdan qochish (koping-strategiya sifatida), hayotga nisbatan umumiy negativ qarashlar, spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalar iste'moliga moyillik.

Emotsional kuyish sindromi rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan o'tadi. Ushbu bosqichlar bir-birini ketma-ket almashtirib boradi, ba'zida insonni bu jarayonga chuqur tortib kiradi, ba'zida esa undan chiqib ketish imkonini beradi. Masalan, nevrotik reaksiya bosqichida insonning jismoniy va emotsional holati sezilarli o'zgaradi; asab tizimi charchaganida aqliy va jismoniy ish qobiliyati pasayadi, charchoq, asabiylik, ba'zida ortiqcha jahl bilan kechuvchi holatlar yuz beradi. Bu esa atrofdagilarning kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Keyingi bosqich nevrotik rivojlanish bosqichi, unda inson xulqi keskin o'zgaradi, kasbiy faoliyatga nisbatan ruxiy begonalashuv sodir bo'ladi, hatto o'z vazifalariga nisbatan nafrat hissi paydo bo'lishi mumkin. Bunday shaxs jamiyatdan psixologik ajralish holatiga kiradi, u bilan muloqot o'rnatish qiyinlashadi, go'yo u bilan "ko'rinmas devor" paydo bo'lgandek bo'ladi. Keyingi bosqichda shaxsning barqaror shaxsiy o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlar xavfli bo'lib, kasbiy deformatsiyaga olib keladi: bu holat emotsional sovuqlik, befarqlik, qattiqqo'llik, tajovuzkorlik va ochiq qo'pol munosabat shaklida namoyon bo'ladi.

Natijada, inson to'liq psixologik va emotsional kuyish holatiga kirib qoladi. Bunday paytda insonning hayotdan zavq olish qobiliyati asta-sekin yo'qoladi va oxir-oqibat butunlay so'nadi. Harbiy xizmatda esa, strukturaviy jihatdan safdagi oddiy askardan tortib yuqori



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

qo'mondonlik darajasigacha bo'lgan ko'p pog'onali tizim mavjudligi sababli, kasbiy kuyish sindromining rivojlanish xavfi yanada yuqoridir. Eng muhimi emotsional kuyishning boshlanishi bilan uning to'liq shakllangan holati o'rtasidagi nozik chegarani vaqtida aniqlay bilishdir.

Chunki u odatda sekin, sezilmas tarzda boshlanadi, ammo o'z vaqtida oldi olinmasa, xizmat faoliyati jarayonida, ayniqsa og'ir yoki ekstremal sharoitlarda, fosiq va fojeali oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, harbiy xizmatchilar orasida kasbiy shaxsiy buzilishlarning oldini olishga qaratilgan psixologik profilaktika tadbirlarini muntazam o'tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лукьянов В.В., Сороколетова И.Е. К истории термина «выгорание». / Выгорание и профессионализация [Текст]: сб. науч. Тр. / под ред. В.В. Лукьянова, А.Б. Леоновой, А.А. Обознова, А.С. Чернышева, Н.Е. Водопьяновой; Курск, гос. Ун-т.- Курск, 2013. С. 114-123.
2. Майсак Н.В. Психологические особенности деформации личности кадровых офицеров / Н.В. Майсак, С.В. Михеев // Общество и право. – 2011. – №1. – С. 242–248.
3. Мачульская И.А. Феномен эмоционального выгорания военнослужащих в процессе их профессиональной деятельности / И.А. Мачульская, Р.В. Беляев, В.Н. Машин // Территория науки. – 2015. – №5. – С. 72–77.
4. Чуприкова Е.В. Специфика проявления эмоционального выгорания у военнослужащих // Образование и наука в современных реалиях: материалы VIII Междунар. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 22 февр. 2019 г.) / редкол.: О.Н. Широков [и др.] – Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2019. – С. 148-150.
5. Корытова Г.С. Эмоциональное выгорание как проявление защитного поведения в профессиональной деятельности // Фундаментальные исследования. – 2005. – № 4 – С. 29-32.
6. Водопьянова Н.Е. Стратегии и модели преодолевающего поведения // Практикум по психологии менеджмента и профессиональной деятельности / под ред. Г.С.Никифорова, М.А.Дмитриевой, В.М.Снеткова. - СПб., 2001. - С.78-83.
7. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Кризисы профессионального становления личности // Психологический журнал. - Т. 18. - 1997. - № 6. - С. 35-44.
8. Мачульская И.А., Беляев Р.В., Машин В.Н. Психологические особенности военно-профессиональной ориентации военнослужащих по призыву // Территория науки. 2015. № 2. С. 40-46.